

MAKTABLARDA O'QUVCHILAR ORASIDA ERTA TUG'RUQNI OLDINI Olishda PSIXOLOGIK ISHLAR

QASHQADARYO VILOYATI G'UZOR TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BO'LIMIGA QARASHLI 18- SONLI
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI PSIXOLOGI
BOYMURADOVA XADICHA RAXMATULLAYEVNA

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif maktab o'quvchilari orasida erta turmush va erta tug'ruqni oldini olikshga qaratilgan proflaktik ishlar, uning salbiy oqibatlari, o'smirlik davriga ta'luqli salbiy hatti harakatlar haqida yoritib o'tgan. Bundan tashqari maqolada maktabda o'quvchilar orasida og'ishgan xulq ko'rinishlari, ularni korrektsiyalash maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar, mashg'ulot va treninglar xaqida xam fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik, o'spirinlik, psixoproflaktika.

KIRISH

Hozirgi davrda maktab o'quvchilari orasida hayotda o'z yo'lini egallagan, kelajakdagi munosib kasbini tanlab ulgurgan, tom ma'noda maktabdagi ustozlarni bergan ta'lim tarbiya yo'lini mahkam tutgan o'quvchilar juda ko'p. Ming afsuski ushbu o'quvchilar orasida yosh davrlariga xos o'zgarishlar salbiy kechayotgan, o'z hayotini xali mukammal izga qo'yishga ulgurmagan o'quvchilar xam bor. Ayniqsa bunday o'quvchilarimiz orasida qiz bolalar borligi juda achinarli.

Asosiy Qism

Maktablarda psixolog shtatlarining borligi, maktab hamshira va vrachlarini o'z soxasining mutaxasisi ekanligi xam bu kabi salbiy xolatlarni oldini olishda kata ro'l o'ynaydi. Avvalo bu kabi oldini olish ishlari ota-onalar, yuqori sinf o'quvchilari va mahalla xodimlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Jumladan Namangan viloyati Chust tumani 46- sonli maktab psixologi va pedagog xodimlari tomonidan xar o'quv yilida bir qator salbiy xolatlarni oldini olishga qaratilgan bir qator proflaktik ishlar olib borilmoqda. ular qatoriga 2025- yil oktyabr oyida maktab psixologi K. Egamberdiyeva, maktab hamshirasi, maktab xotin qizlar raisi, o'smirlar ginekologi tomonidan o'quvchi qizlar orasida erta tug'ruqni oldini olishga qaratilgan davra suxbatlari, mashg'ulotlar va yeg'ilishlar o'tkazildi. Avvalo maktabning yuqori sinf o'quvchi qizlarining onalari bilan yeg'ilish o'tkazildi. Bu yeg'ilishda erta turmush qurish xaqida, uning salbiy oqibatlari borasida bir qator tavsiyalar, maslaxatlar berib o'tildi. Erta turmush bu balog'at yoshiga yetib ulgurmagan,

o'smirlik davrida, jinsiy tomonlama to'liq shakllanmagan yigit-qizlarning oila qurishi hisoblanadi. Nikoh yoshi mamlakatga bog'liq va qizlar va o'g'il bolalar uchun farq qilishi mumkinligi xaqida aytib o'tishdi.

Bundan tashqari o'quvchi qizlar bilan maktab hamshirasi, vrachi va psixologi tomonidan har yillik tibbiy ko'rik natijalari borasida xam bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. O'quvchilarni faollashtiruvchi, ularni to'g'ri hayot tarziga chorlovchi mashg'ulotlar, treninglar va aksiyalar o'z vaqtida o'tkazildi. Maktabda sinf raxbarlar va fan o'qituvchilari tomonidan o'quvchi qizlarning salbiy muammolari hususida berilgan fikrlar asosida aloxida suxbatlar o'tkazildi. Ular bilan trening mashg'ulotlari amalga oshirildi. Bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun chora tadbirlar rejasi tuzildi. Ota onalari bilan izchil ishlar yo'lga qo'yildi. Natijada o'quv yili davomida ushbu ta'lim dargoxida salbiy xolatlar kuzatilmadi. O'quvchilar orasida doimiy faollik, ilmiy barkamollik xolatlari kuchayib bordi. Maktab raxbari M. Hamdamova tomonidan o'quv yili davomida o'zining xulqi va mashg'ulotlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatayotgan o'quvchilar, faoliyati natijasida yuqori natijalarga erishayotgan ustozlar xam munosib taqdirlanib kelishdi. Yuqorida keltirilgan muammoli, salbiy xolatlarni oldini olish bo'yicha maktab psixologining ish tajribasi va tavsiyalari ilmiy publisistik maqolalar ko'rinishida jamiyat vakillarining xam e'tiborini qozonishi lozim.

Xulosa:

O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi erta tug'ruq va erta turmushning oldini olish, chet elga qatnashga majbur bo'layotgan ayol mehnat migrantlari bilan samarali ishlash, xotin-qizlarning o'z joniga qasb va suiqasd qilishlarini oldini olish borasida shug'ullanadi. O'zbekistonda UNFPA Xotin-qizlar qo'mitasi, nodavlat notijorat tashkilotlari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikda erta turmush qurishning salbiy oqibatlaridan xabardorlikni oshirish, o'smir qizlar va o'g'il bolalarni reproduktiv salomatlik va huquqlar masalalari bo'yicha o'qitish maqsadida ish olib boradi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan „Mustahkam oila“, „Ahil oila“, „Hayotga qo'shil“, „Ijobiy fikrlashni o'qitish“ kabi targ'ibot ishlari olib boriladi. O'smir qizlarga yordam berish maqsadida oila, mahalla, gender, xotin-qizlar, ularni tadbirkorlik masalalari bilan bog'liq mas'ul tashkilotlar tomonidan shlab chiqilgan 120 mingdan ortiq qo'llanmalar hududlarga yetkazib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. Maxmudova. D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogi k

faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.

4. www.ziyonet.uz